

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BOSHQARUV KADRLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI LEARNING OUTCOMES ASOSIDA RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIIY ZARURIYAT SIFATIDA

Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,
tayanch doktoranti
rabbimova2007@mail.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentligini ta'lim natijalari (learning outcomes) asosida rivojlantirish masalasi ijtimoiy zaruriyat sifatida yoritilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat ta'lim siyosati talablari tahlil qilingan. Learning outcomes yondashuvining boshqaruv faoliyatidagi o'rni, uning ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqola natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni joriy etish orqali rahbarlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv kadrlar, kasbiy kompetentlik, learning outcomes, ta'lim natijalari, ta'lim sifati.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития профессиональной компетентности управленческих кадров дошкольных образовательных организаций на основе образовательных результатов (learning outcomes) как социальная необходимость. Проанализированы реформы в сфере образования Республики Узбекистан, нормативно-правовые документы и требования государственной образовательной политики. Обоснована роль подхода learning outcomes в управленческой деятельности, его значение для повышения качества образования и эффективности управления. Результаты исследования направлены на внедрение результативно-ориентированной модели управления и совершенствование профессиональной компетентности руководителей дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: дошкольное образование, управленческие кадры, профессиональная компетентность, learning outcomes, образовательные результаты, качество образования.

Annotation: This article examines the development of professional competence of management personnel in preschool education organizations based on learning outcomes as a social necessity. The study analyzes educational reforms, legal frameworks, and state education policy requirements in the Republic of Uzbekistan. The role of the learning outcomes approach in management activities and its importance in improving educational quality and management effectiveness are substantiated. The findings highlight the potential for enhancing professional competence of preschool education leaders through the implementation of outcome-based management practices.

Keywords: preschool education, management personnel, professional competence, learning outcomes, educational outcomes, quality of education.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish hamda boshqaruv kadrlarining

kasbiy kompetentligini xalqaro talablar darajasida rivojlantirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Xususan, ta'lim natijalari (learning outcomes) asosida boshqaruv faoliyatini tashkil etish boshqaruv kadrlarining strategik fikrlashi, tahliliy yondashuvi va innovatsion qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro maydonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash tajribalarga ko'ra, bilim, ko'nikma va malakaga asoslangan ta'lim evolyusiyasining keyingi bosqichi sifatida hozirgi kunda evolyusion trendi bo'lib turgan uzluksiz professional ta'lim (Continuing professional education), uzluksiz professional rivojlanish (Continuing professional development) hamda ta'lim natijalari (Learning Outcomes) asosida rahbarlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'limni modernizatsiyalashning konseptual modeliga asoslangan nazariy-pedagogik modelini ishlab chiqish, kasbiy kompetentlikning mantiqiy tuzilmasini loyihalash orqali malakali kadrlarni ob'ektiv saralash tamoyillari asosida shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini (o'z-o'zini faollashtirish va namoyon qilish, kreativlik, kasbiy relevant, ma'lumotlarni topish va ulardan samarali foydalanish) rivojlantirishga qaratilgan yangi ta'lim tizimini shakllantirish muammolarini tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida maktabgacha ta'lim tizimini samarali boshqarish, avvalo, boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Xalqaro ta'lim amaliyotida ta'lim natijalari (learning outcomes) asosida boshqaruv faoliyatini tashkil etish ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sifati ta'minlash, kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish va ta'lim natijalariga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmon va qarorlarida boshqaruv kadrlarining zamonaviy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ularning faoliyati natijadorlik ko'rsatkichlari asosida baholanishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Amaldagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining faoliyati ko'pincha jarayonga yo'naltirilgan bo'lib, aniq o'lchab bo'ladigan ta'lim natijalariga (learning outcomes) yetarli darajada tayanmaydi. Bu holat boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi, pedagoglar faoliyatini baholashda subyektivlikka olib keladi hamda ta'lim sifati barqarorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu bois, boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentligini learning outcomes asosida rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuv rahbarlarda strategik rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, monitoring va tahlil, shuningdek, jamoa faoliyatini baholash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning ochiqligi, hisobdorligi va samaradorligi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentligini ta'lim natijalari (learning outcomes) asosida rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifa bo'lib, u davlat ta'lim siyosati maqsadlari bilan to'liq uyg'unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
4. OECD. Starting Strong VI: Supporting Meaningful Interactions in Early Childhood Education and Care (ECEC). — Paris: OECD Publishing, 2021.
5. UNESCO. Education 2030: Framework for Action. — Paris: UNESCO, 2017.
6. Harden R.M. Outcome-based education: The future is today. — Medical Teacher, 2007.
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. — Open University Press, 2011.
8. Gaffarova N.N., Xudoyberganova D.A. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va boshqaruv samaradorligi masalalari. — Toshkent, 2020.